

## FENOKUZATUVNING MAQSADI VA UNI O‘TKAZISHNING TASHKIL ETISH ASOSLARI

Ismoilov Oллоhberdi Ikromjon o‘g‘li

ADU biologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Tabiatdagi mavsumiy hodisalarning beruvchi omillar va qonuniyatlarni ekologik fenologiya o‘rganib, bu fanning ayni qaratilgan obeytkiv zonaga nisbatan ta’sir e’tuvchi ekologik omil endogen va ekzogen omillarga bo‘linadi. Ushbu maqolada daraxt-butata o‘simliklar fenologik kuzatuvining maqsadi va uni tashkil etish haqida so‘z bo‘radi.

**Kalit so‘zlar:** fenologiya, vegetatsiya, introduksiya, flora, fenologik spektr, o‘zgarish, fasliy hodisalar.

**Аннотация:** экологическая фенология, изучающая факторы и закономерности сезонных явлений в природе, разделяет экологический фактор на эндогенный и экзогенный, обращая внимание на влияние этой науки на обейткивскую зону. В данной статье рассматривается цель и организация фенологического наблюдения древесно-кустарниковых растений.

**Ключевые слова:** фенология, растительность, интродукция, флора, фенологический спектр, изменения, сезонные явления.

**Annotation:** studying environmental phenology of the factors and laws that give rise to seasonal phenomena in nature, the environmental factor that honors the impact on the obeytkiv zone, where this science is focused on the moment, is divided into endogenous and exogenous factors. This article will talk about the purpose of phenological observation of tree-shrub plants and its organization.

**Keywords:** phenology, vegetation, introduction, flora, phenological spectrum, change, seasonal phenomena.

Daraxt-butata o‘simliklarining hayotidagi fasliy hodisalar – mavsumiy o‘zgarishlar iqlim sharoitlariga chambarchas bog‘liq hoida kechadi. Bu hodisalarni va ularni o‘zaro munosabatlarini o‘rganish katta amaliy ahamiyatga egadir, chunki ular turli iqlim – tuproq sharoitlarida turlicha davrlarda kechadi. O‘simliklar hayotida sodir bo‘ladigan fasliy hodisalarni o‘rganadigan fan fenologiya deb ataladi. Fenologiya grekchada phainomal-hodisa, logos – fan degan so‘zlar birikmasidan tuzilgan. “Fenologiya” terminini belgiyalik botanik Sh.Morran taklif etgan(1853).Yuksak o‘simliklarda kurtaklarning bo‘rtishi va

yoʻzilishi, barg chiqarishi, gʻunchalanish(shonalash), gullash, urugʻ va mevalarning pishib yetilishi, kuzda barglar sargʻayishi va toʻkilishi(xazonrezgilik), sutemizuvchi hayvonlarda qishki uyqudan uygʻonish, juftlashish, bolalash, mavsumiy tullash, qushlarda bahorgi uchib kelish, uya solish, tuxum qoʻyish, joʻja ochish kuzgi uchib ketish, baliqlarda bahorgi serharakat hayot, uvildiriq tashlash, mavsumiy koʻchib yurish, hasharotlarda qishlab chiqqan individlarning bahorgi uygʻonishi, gumbaklardan hasharotlarning paydo boʻlishi, tuxumdan lichinka(qurt)larning ochib chiqishi, juftlashishi, tuxum qoʻyishi va hokazolarning sodir boʻlish muddatlarini oʻrganadi

Daraxt-buta oʻsimliklarning vegetatsiya davrida boʻladigan fasliy oʻzgarishlarni bilmasdan turib, ularning biologik, ekologik va boshqa xususiyatlarini bilish mumkin emas.

Tekshirish obyektiga binoan, Fenologiya umumiy va xususiy Fenologiyaga boʻlinadi. Umumiy fenologiya tabiat taraqqiyotini yil fasllarining bir meyorda alamashinib turishi bilan yaxlit hodisa sifatida oʻrganadi. Xususiy Fenologiya fitofenologiya yoki oʻsimliklar fenologiyasi hamda zoofenologiya – hayvonlar fenologiyasiga boʻlinadi. Fitofenologiyada madaniy va yovvoyi oʻsimliklar, begona oʻt va boshqalarning mavsumiy rivojlanishi oʻrganiladi.

Tabiatdagi mavsumiy hodisalarning beruvchi omillar va qonuniyatlarni ekologik fenologiya oʻrganib, bu fanning ayni qaratilgan obyektiv zonaga nisbatan taʼsir eʼtuvchi ekologik omil endogen va ekzogen omillarga boʻlinadi. Ekzogen omillarni tashqi muxit belgilaydi. Oʻsimliklarning bahorgi uygonish muddatlarini asosan issiqlik rejimi belgilab beradi. Endogen taʼsirda esa organizm tashqi taʼsirga emas, balki oʻz ichki organ va toʻqimalaridagi fiziologik taʼsir natijasida roʻy beradi

Daraxt-buta oʻsimliklarning vegetatsiya davrida boʻladigan fasliy oʻzgarishlarni bilmasdan turib, ularning biologik, ekologik va boshqa fasliy oʻzgarishlarini bilish mumkin emas. Fasliy oʻzgarishlarni oʻrganish maqsadida daraxt-butalarning turli fasllarda rivojlanish bosqichlari ustidan kuzatishlar olib borish mumkin. Bu kuzatishlar daraxt oʻsimliklarni hayotida asosiy oʻrganish davrlari, ularni boshlanishi jadal oʻtishi va tugallanish haqidagi maʼlumotlar olish imkonini beradi. Bu oʻzgarishlar bir turda turli sharoitlarda turlicha sharoitlarda turlicha muddatda turlicha oʻtadi, koʻpgina mevali daraxtlar mart oxiri–aprel boshlarida gullasa, togʻlarda bu jarayon kechroq aprel oxiri may oylarida kechadi. Fasliy oʻzgarishlarning qonuniyatlaridan bilish daraxt–buta oʻsimliklarni qanday iqlim sharoitlarda ekish, arealini kengaytirish va undan maqsadli toʻgʻri foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Ayniqsa, koʻkalamzorlashtirish va oʻrmon xoʻjaligida qimmatli, xalq xoʻjaligi uchun muxim daraxt-buta oʻsimliklarni introduksiya qilishda va hududlashtirishda bu kuzatuvlar katta ahamiyatga ega.

O‘simlik turlarining yer betida tarqalishi ma’lum va aniq qonuniyat asosida boradi va bu qonuniyatga bo‘ysunadi:

1. O‘simlik turlarining soni shimoldan janubga tomon ortib boradi. Bu xodisa iqlimning shimoldan janubga tomon o‘zgarib, ilib, yaxshilanib borishidadir.

2. Odatda tekislikdagi o‘simlik turlarining soni tog‘li rayonlardagiga nisbatan hiyla oz bo‘ladi.

3. Geologik jihatdan burungi tog‘li joylar va tekisliklarning florasida geologik jihatdan yosh bolgan teritoriyalarnikiga nisbatan g‘oyat boy bo‘ladi. Buning sababi qadimgi floraning butunlay yo‘qolib ketmasligini saqlab qolishidir.

4. Tropik va subtropik zonalarining florasida o‘rta iqlimli poyasining florasiga nisbatan ancha boy bo‘ladi. Bu hol tropik va subtropik mamlakatlar iqlimning o‘simliklar uchun qulay bo‘lishi, florasining esa muxim o‘zgarishlarga duch kelmaganligidandir

Ko‘pchilik o‘simliklar kuz va qish oylarini urug‘, tukanak hamda ildizpoya holatida o‘tkazadi. Kuzgi ekin va daraxtlar kuz hamda qish fasllarini ochiq joyda o‘tkazadi. Shuning uchun ularni past temperaturaga chiniqtirish zarur. Erta bahorda erigan qor suvlari (tuproqqa singib) kechasi muzlab kengayadi, natijada tuproq qatlami siqilib ko‘tariladi. Bunda ildizlar shikastlanadi va o‘simlik nobud bo‘ladi. O‘simlikni qishki noqulaylikdan saqlash uchun ekin dalalaridagi qorni to‘plash, yerga o‘g‘it solish, o‘simliklarni makro-va mikroelementlar bilan ta‘minlash kabi agrotexnikaviy tadbirlarni o‘tkazish hamda noqulay sharoitda bardosh beradigan navlarni yetishtirish zarur. Turli guruh o‘simliklar vegetatsiya muddati turlicha bo‘lishi, ularning yil fasllarida yorug‘lik, namlik, haroratning va boshqa omillarning o‘zgarishiga moslashish xususiyatidir.

Ayniqsa, bioekologiyani hisobga olgan holda va tirik organizmlarning hayot faoliyatiga tasir qiluvchi tabiiy omillar haqida gapirganda fenologik kuzatuvlar juda e‘tiborga olib kelinmoqda

Xulosa qilib aytganda, muayyan geografik zonada daraxt-buta o‘simlik turining fenologik fazalarini yaqqol ko‘rish uchun ularni fenologik spektri ko‘rinishida tasvirlash maqsadga muvofiqdir.

Fenologik kuzatishlar o‘rmon xo‘jaligida, ko‘kalamzorlashtirishda, muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Fenologik kuzatishlar meteorologik malumotlar bilan to‘ldiriladi, bu esa yillik mavsumiy o‘zgarishlarni to‘g‘ri izohlash imkonini beradi. Fenokuzatuvlarda yig‘ilgan ma‘lumotlar daraxt-buta turlarini turli iqlim sharoitlarida o‘stirish imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradi. Ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘tkazishda qimmatli daraxt va butalarni vegetatsiya davridagi fasliy o‘zgarishlarni o‘rganish maqsadida quyidagi keng qamrovli fenokuzatishlar o‘tkaziladi

**Adabiyotlar:**

1. A.K.Qayimov, E.T.Berdiyev, H.F.Hamroyev, S.A.Turdiyev. Dendralogiya.- T.:Fan va texnologiya, 2015.
2. G.D.Mustaqimov. O‘simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiya asoslari.- T.:O‘qituvchi, 1995.
3. S.S.Sahobiddinov. O‘simliklar sistematikasi.-T.:O‘qituvchi, 1966.
4. G.S.Tursinbayeva, G.M.Duschanova, J.S.Sadinov.-T.:Inovatsiya-Ziyo, 2020